



AFTER THE SECOND WORLD WAR, THE HISTORY AND ACTIVITY OF NETWORK NEWSPAPERS FOCUSED ON NATIONAL ECONOMY IN FERGANA REGION

Dilfuza Madrakhimova
Master's student
Fergana State University
Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: network newspapers focused on the national economy, "Sovet ipagi", "Margilan Atlas", "Khimik", "Tekstelshchik", "Pedagog", "Ingener"

Received: 14.02.23

Accepted: 16.02.23

Published: 18.02.23

Abstract: In the article, in the years after the Second World War, network newspapers focused on national economy, such as "Sovet ipagi", "Margilon Atlas", "Khimik", "Tekstelshchik", culturally oriented newspapers such as "Pedagog", "Ingener" organization, activities and the significance of the articles published in them in illuminating the socio-economic and cultural history of Fergana region.

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYIN FARG`ONA VILOYATIDA XALQ XO`JALIGIGA YO`NALTIRILGAN TARMOQ GAZETALARINING SHAKLLANISH TARIXI VA FAOLIYATI

Dilfuza Madraximova
Magistratura talabasi
Farg'ona davlat universiteti
Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: xalq xo`jaligiga yo`naltirilgan tarmoq gazetalar, «Sovet ipagi», «Marg`ilon atlasi», «Ximik», «Текстелщик», «Pedagog» «Injener»

Annotatsiya: maqolada ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda xalq xo`jaligiga yo`naltirilgan tarmoq gazetalari «Sovet ipagi», «Marg`ilon atlasi», «Ximik», «Текстелщик», madaniy yo`nalishdagi «Pedagog», «Injener» kabi ro`znomalarining tashkil etilishi, faoliyati va ularda e`lon qilingan maqolalarning Farg`ona viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy tarixini yoritishdagi ahamiyatiga to`xtalib o`tilgan.

ПОСЛЕ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ ИСТОРИЯ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СЕТЕВЫХ ГАЗЕТ, ПОСВЯЩЕННЫХ НАРОДНОМУ ХОЗЯЙСТВУ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Дильфуз Мадрахимова

студент магистратуры

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: сетевые газеты, ориентированные на народное хозяйство, "Совет ипаги", "Маргиланский атлас", "Химик", "Текстельщик", "Педагог", "Инженер"

Аннотация: В статье в годы после Второй мировой войны сетевые газеты народнохозяйственной направленности, такие как «Совет ипаги», «Маргилон Атлас», «Химик», «Текстельщик», культурно-ориентированные газеты, такие как «Педагог», « Инженер», деятельность и значение опубликованных в них статей в освещении социально-экономической и культурной истории Ферганской области.

KIRISH

Matbuot shakllangan davrdan e'tiboran davr ko`zgusi sifatida davlatlarning siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy hayotining turli jabhalarini yoritib kelayotgan muhim manbalardan biriga aylanib ulgurdi. Ayniqsa mamlakatimizda milliy matbuotning shakllanishi juda muhim ahamiyatga molik hodisa bo`ldi. Sobiq ittifoq davriga kelib matbuot partiya mafkurasiga xizmat qilgan bo`lishiga qaramay, mamlakatimizning yaqin tarixini olib beruvchi muhim manbalardan biri sifatidagi ahamiyati kamaymadi.

Sovet rejimi sharoitida Farg`ona viloyati va uning tarkibiga kirgan tumanlarning davlat organlariga qarashli rasmiy nashrlari bilan birga xalq xo`jaligi yo`nalishidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotni turli jabhalarini yorituvchi bir qator matbuot nashrlari ham yuzaga keldi.

ASOSIY QISM

Ikkinci jahon urushidan keyingi yillarda xalq xo`jaligiga yo`naltirilgan tarmoq gazetalar «Sovet ipagi», «Marg‘ilon atlasi», «Po`lat yo`llarda», «O`rta Osiyo yo`li», «Hayoti nav», «Paxta g`alabasi» kabi sovet mafkurasiga xizmat qiluvchi matbuot nashrlari ko`paygani, ularga kadrlar tayyorlash uchun kolxoz va sovxozlarda ko`chma redaksiyalar faoliyat olib borganligi, biroq 1970-yillardan mamlakat budgetini tejash maqsadida gazetalar soni va tiraji kamayib, 1980-yillarda gazeta sahifalarida jamiyat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti aks etgan ruknlar ko`paydi.

Quyida Farg`ona viloyatidagi xo`jalik faoliyatiga yo`naltirilgan «Sovet ipagi», «Marg‘ilon atlasi», «Ximik», «Текстельщик», madaniy yo`nalishdagi «Pedagog», «Injener» gazetalarining faoliyatiga to`xtalib o`tamiz.

«Marg`ilon atlasi» gazetasi abrli gazlamalar «Atlas» firmasi partiya Komiteti, kasaba soyuz tashkiloti, fabrika komiteti va ma'muriyatining organi bo`lgan. Gazetaning ilk soni 1968-yil 10-

aprelda chop etilgan. Ro`znomanining Farg`ona viloyati tarixi va madaniyati muzeyining arxiv fondida 1973-yilda, 1981-yilda hamda 1986-yilda chop etilgan bittadan sonlari mavjud. Gazetaning dizayni o`ziga xos bo`lib viloyatda chop etilgan boshqa gazetalardan farqlanadi. Hoshiyalari bezakli, noodatiy tasvirlar bilan chop etilgan. Bu dizaynni gazetani rasmiy siyosiy organga tegishli emasligi bilan izohlash mumkin. Gazeta oq-qora, A-3 formatda chop etilgan, ikki varoq, to`rt sahifadan iborat bo`lgan.

Quyida gazetaning 1973-yil 28-aprel shanba kuni chiqqan sonida berilgan maqolalar bilan tanishib chiqamiz. Gazetaning ushbu soni 1-may mehnat bayrami munosabati bilan chop etilgan. Gazetaning № 18-soni (umumiylar 265-soni) bo`lib, 6-yili chiqish degan yozuv qayd etilgan. Gazetaning narxi 2 tiyin bo`lgan.

Gazetaning birinchi sahifasida Firma partiya komiteti, kasaba soyuz tashkiloti, fabrika komiteti va ma'muriyatining o`z ishchilariga yo`llagan tabrik va qutlovi bilan boshlangan. «Qardoshlik bayrami» nomli maqolada XXIV seyzd qarorlarini SSSRning barcha qardosh xalqlari tomonidan og`ishmasdan bajarishga da`vat etilgan. Firma ishlab chiqarish plan bo`limining ekonomisti Nazira Abdullayevaning «Besh yillik plan fondiga» (komunistik shanbalik uyushqoqlik bilan o`tdi) nomli maqolasida to`qqizinchiligi besh yillikda Leninning tavalludining 103 yilligi munosabati bilan ishchilarining qizil shanbalikdagi faol ishtiroki, shuningdek ishchilar oylik maoshidan katta mablag` jamg`arilganligi haqida ma'lumot berilgan. Maqolaning e'tiborli jihat shundaki, «Komunistik shanbalik kunida korxonaning 4 ming 15 nafar ishchi va xizmatchisi, injener texnik hodimlari faol ishtirok etdi» deb qayd etilgan. Ushbu raqam fabrikani juda katta ishchi kuchiga ega ekanligi va yirik sanoat korxonasi bo`lganligini ko`rsatadi.

«Xalq qahramoniga yuksak mukofot» maqolasida Sovet Ittifoqi marshali Semyon Mihaylovich Budyonniy tavalludining 90 yilligi va «Lenin ordeni» bilan taqdirlanganligi haqidagi habar bosilgan. Gazetaning keyingi sahifalarida R.I.Getmanning «Energetiklar tufhasi», Aziza Botirovaning «Lola sayli», Komiljon Toshpo`latovning «Remontchi-quruvchilar shijoati», Ma'rufjon Olimovning «Transportchilar hissasi» L Xo`jayevaning «Atlaschilar Bolgariyada», «Tongni qarshilab» (yangi suratga olingan film taasurotlari haqida) TASS habari, e'lonlar chop etilgan. Gazeta Marg`ilon atlasi redaksiyasida muharrir Alijon Shukurov tahriri ostida chop etilgan.(Alijon Shukurov 1971-1978-yillarda «Marg`ilon atlasi» gazetasining muharriri vazifasida faoliyat ko`rsatgan).

Gazetaning 1981, 1986-yillarda bosmadan chiqqan sonlaridagi maqolalar ham asosan rejali iqtisodiyotni, partiya seyzdi qarorlarini bajarishga, komunistik g`oyani singdirishga yo`naltirilgan. Jumladan 1986-yil 11-iyun chorshanba kuni chop etilgan № 24 sonida «Yillik plan tayyor», «Besh yillikning ilg`orlari», «Jadallashtirishning zarur sharti», «O`tgan oyda qanday ishladi», «Zarbdor vahtada» va boshqa shu kabi maqolalarning bosh g`oyasi oylik, yillik, besh yillik rejalarini oshig`i

bilan bajarishga qaratilgan chaqiriqlar bilan yo`g`rilganligiga guvoh bo`lamiz. Ma'lumki, bu jarayonlar doim ham ijobiy natijalarga olib kelmagan. Oshirib yozishlar, aslida yo`q mahsulotni bor deb ko`rsatish odat tusiga kirib oxir-oqibatda sovet davlatini iqtisodiy inqirozini yuzaga keltirgan.

«Текстилщик» gazetasi F.E.Dzerjinskiy nomidagi mehnat qizil bayroq ordenli Farg`ona to`qimachilik kombinati partiya, kasaba soyuzi, komsomol tashkilotlari va direksiyasi organi bo`lib, uning ilk soni 1957-yil 23-sentyabrda bosmadan chiqqan. Gazetaning ayrim sonlari o`zbek tilida, ayrimlari rus tilda bosmadan chiqqan. Shuningdek ikki tildagi maqolalar bilan ham chop etilgan sonlari ham mavjud.

Farg`ona viloyati tarixi va madaniyati muzeyi arxiv fondida gazetaning 1973, 1974, 1978, 1985, 1986-yillarda chop etilgan sonlari mavjud. Gazeta sahifalarida e`lon qilingan ayrim maqolalarga to`xtalib o`tamiz.

Gazetada V.I.Lenin tavallud topgan 22-aprel munosabati bilan A.Sharafiddinov, M.Rahimovalarning «Buyuk siymo» nomli maqolasi berilgan. Z.Ablimitovaning «Kommunisit vijdoni», Ateist-propogandist A.Qodirovning «Xotin-qizlar va islom dini», V.Summentsovaning «Верность коллективу», V.Mixaylovaning «Эстафетах- в надежных руках» shuningdek, «Partiya senga salom», «Muddatdan ilgari», «Поднят флаг сезона» nomli kommunistik partiya targ`ibotiga bag`ishlangan bir qator maqolalar chop etilgan. Zarbdor ishchilarni namuna qilib ko`rsatish, rejali iqtsodiyotni tezkor bajarish, shanbaliklarda faol ishtirok etishga da`vat, diniy atezimni targ`ib qilish, ayollarni zarbdor ishchi kuchiga aylantirish masalalari gazetaning ustivor vazifasi bo`lgan. Ba`zan gazeta sahifalarida dolzarb muammolar ham ko`tarib chiqilgan.

V.V.Kuybishev nomidagi Marg`ilon ipak kombinati partiya, kasaba soyuz komsomol komitetlari va ma'muriyatining organi «Советский шелк», «Sovet ipagi» gazetasi rus va o`zbek tillarida chop etilgan. Farg`ona viloyati tarixi va madaniyati muzeyining arxiv fondida «Советский шелк» gazetasining 1978, 1986-yillarda chiqqan bittadan soni, «Sovet ipagi» gazetasining 1973-yildagi 2 ta, 1978-yildagi bitta soni mavjud.

Gazeta 1951-yil dekabr oyidan boshlab chiqqa boshlagan. A-3 formatda 2 sahifada chop etilgan. Gazetaning 1973-yilda 21-aprel shanba kuni chiqqan № 9 (umumuuiy 977) soni bo`lib H.Mamadiyev muharrirligi ostida Marg`ilon shahar bosmaxonasida chiqqan. Gazetaning birinchi sahifasi V.I.Lenin tavalludining 103 yilligi munosabati bilan «Hamisha barhayot siymo» nomli maqola bilan boshlangan. Gazetada aprel oyida amalga oshiriladigan qizil shanbalik tarixi haqida «Mehnat bayrami», «Besh yillik fondga», «Munosib sovg`a», «Mayoldi musobaqa ilg`orlari» nomli qizil shanbalik natijalariga bag`ishlangan maqolalar chop etilgan. Birinchi sahifada Kombinat partiya komitetining yig`ilishi bayoni berilgan. Yig`ilishda kombinatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxi keskin ortib ketayotganligi tanqid qilingan va unga

sabab bo`lgan omillar jumladan hom ashyni haddan ziyoda isrof qilinayotgani, ayrim ishlar sifatsiz bajarilayotgani uchun qayta bajarish ishchilarga maosh to`lashni taqazo etishi va ish haqqining qayta to`lanishi ham mahsulot tan narxiga ta`sir etayotgani e`tirof etilgan.

Gazetaning ikkinchi sahifasida «Agitatorlar va siyosiy targ`ibotchilar ishi talab darajasida» nomi bilan kombinat partiya yig`ilishini davomi keltirilgan. Kombinatda 280 nafar targ`ibotchi bo`lgan. Ulardan 160 nafari partyaning a`zolari bo`lib, ishchilar ongiga sovet mafkurasini singdirish ularning eng asosiy vazifasi ekanligi bot-bot takrorlangan. Gazetada muharrir H.Mamadiyevning «Marg`ilon-O`sh musobaqasi» nomli maqolasida Partiya XXIV seyzdi 1973-yilda butunittifoq bo`yicha e`lon qilingan sotsialistik musobaqa shartlarini bajarish uchun ko`p ming kishilik kombinat ishchilarining faoliyatiga baho berish uchun O`shdan kelgan hamkasblarining kombinat faoliyatiga bergen baholari tahlil etilgan. Shuningdek ikkinchi sahifada «Dekabr plenumi qarorlari hayotda», «Ipakchi komsomollar yig`ilishi» kabi maqolalar e`lon qilingan bo`lib ularning har biri sotsialistik mafkuraga xizmat qilgan.

Gazetaning 1973-yil 10-aprel yakshanba kuni chiqqan №10 (umumiylar tirajning 978) sonida 8 ta maqola chop etilgan. Maqolarning uchtasi 1-may mehnat bayrami kuni munosabati bilan yozilgan («1-may sharafiga», «Bayram va qutlovlari», «Bahor bayrami»).

Rejali iqtisodiyotni bajarishga oid vazifalarni o`zida aks ettirgan to`rtta maqola («Muddatidan ilgari», «Mayoldi musobaqa ilg`orlari», «Pillakashlar bayroqdor», «Zo`r uyushqoqlik, katta ko`tarinkilik bilan») bosilgan. Ushbu maqolalardan birida kombinatning 7000 dan ziyod ishchilari qizil shanbalikda faol ishtirok etkanligi haqida ma'lumot keltirilgan. Kombinat chindan ham juda katta ishchi kuchiga ega bo`lgan.

5-may sovet matbuoti kuni munosabati bilan mavzuga oid «G`oyaviy chiqish quroli» nomli maqola chop etilgan. Maqolada quyidagi ma'lumot keltirilgan. «Oktyabr revolutsiyasiga qadar respublikamiz territoriyasida 15 ta mahalliy nashr bo`lib, o`zbek tilida chiqadigan yagona gazeta ham shu hisobga kirardi. Bugungi kunda respublikamizda 200 nomdan ziyod gazeta va 100 nomdan ziyodda jurnallar chop etilayapti». 1917-yilga qadar davlatimiz hududida milliy tilda chop etilgan qator matbuot nashrlari mavjud bo`lganligi haqida yuqorida qayd etilgan ma'lumotlarga asoslanib o`zbek tilida chiqadigan yagona nashr bo`lgan degan fikr noo`rin degan xulosa berish mumkin. Sababi XX asrning boshlarida milliy ziyojitarimiz tomonidan ko`plab milliy tilda chiqadigan matbuot nashrlari shakllanib ulgurgan edi.

Gazetaning o`ziga xos tomoni shundaki, unda berilgan maqolalarning deyarli barchasini muallifi sifatida H.Mamadiyev ya`ni muharrirning o`zi ko`rsatilgan. Hatto gazetadagi fotosuratlar ham H.Mamadiyev tomonidan olingan. Maqolardan ikkitasi H.Komilov muallifligida chop etilgan.

«Советский шелк» nomi bilan 1978-yil 16-dekabr shanba kuni chiqqan № 50 (umumiyligi 1230) soni V.V.Kuybishev nomidagi Marg`ilon ipak kombinati tashkil topganining 50 yilligi munosabati bilan chop etilgan. Gazetaning 1, 2-sahifalarida rus tilidagi 3,4-sahifalarida o`zbek tilidagi maqolalar bosilgan.

Gazetaning birinchi sahifasi O`zbekiston komunistik partiyasi Markaziy Komiteti birinchi sekretari Sh.Rashidovning kombinat ahligi yo`llagan tabrige (rus tilida) bilan boshlangan. Shuningdek «Награды – лучшим», «Всем рабочим, инженерно-техническим работникам и служащим Маргиланского шелкового комбината имени В.В.Куйбышева», «Славное пятидесятилетие», «Торжества в честь юбилея», «Отличный подарок», «Книга почета», «Качество тканей улучшается», «Рапорт ткачей» nomli rus tilidagi maqolalar asosan kombinatning tashkil ətilishi tarixiga, faxriy ishchilar faoliyatiga bag`ishlangan.

Gazetaning 3-sahifasida «Yuksalish yillari», «O`zimiz qurbanmiz» nomli maqolalar va «Raqamlar va faktlar» ruknida kombinat faoliyatiga oid qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Jumladan kombinat 24 hektar maydonni egallashi, O`zbekiston bo`yicha shoyini 30 % ni yetkazib berishi, 34 ta milliy nusxada va 800 dan ortiq xilma-xil nusxada gazlama turlari ishlab chiqarilishi qayd etilgan. Shuningdek kombinatda ishab chiqarilgan gazlamalar ittifoqdosh respubliklardan tashqari Hindiston, Italiya, Malaziya, Belgiya va hatto AQShning Nyu York shahriga eksport qilinayotgani qayd etilgan.

Kombinatning faxriy ishchisi Isroil Xoliqovning «O`zimiz qurbanmiz» nomli maqolasida quyidagi xotiralar bayon qilingan. «1927-yilning oxirida O`zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Yo`ldosh Ohunboboyev ipak shahri Marg`ilon hukumat tomonidan fabrika qurish uchun tanlangani e`lon qildi. Yoshlarga murojat qilib fabrika qurilishida qatnashishga taklif qildi... Moskvalik mutaxassislar Rozanov, Lapin, Timofeyev boshchiligidagi qurilish boshlandi. Qurilish ishlari hali mexanizatsiyalashmagan, ketmon belkurak, kirka, zambil bilan ishlardik. Qurilish materiallari – sement, g`isht, taxta yog`ochlarni Gorchakov stansiyasidan aravalarda keltirar edik. Shunga qaramay fabrika 1928-yil oxirigacha qurib bitkazildi va dekabr oyida ishga tushirildi. Mana 50 yillardiki ushbu kombinatda mehnat faoliyatini olib borayapman.» Xotira tarzida bayon etilgan ushbu maqolada kombinatning shakllanish tarixiga oid muhim ma'lumotlarni olish mumkin. Gazetani o`rganish jarayoni shuni ko`rsatdiki, xalq xo`jaligi yo`nalishidagi ijtimoiy-iqtisodiy gazetalar ham komunistik partiya targ`ibotchisi sifatida siyosiylashtirilgan.

Farg`ona azotli o`g`itlar zavodi partiya, kasaba sayuz, komsomol komitetlari va direksiysi ogani «Ximik» gazetasini tarixiga to`xtalamiz. Farg`ona viloyati tarixi va madaniyati muzeyi arxiv fondida «Ximik» gazetasining 1979-yil 1-yanvarda chiqqan ilk soni, 1982, 1986-yillarda chiqqan bittadan sonlari mavjud.

Gazetaning o`zida keltirilgan ma'lumotga qaraganda gazetaning ilk soni 1979 1-yanvarda Farg`ona viloyat hokimligining «Правда» gazetasining 50-yilligi nomli bosmaxonasida A.M.Qambarov taxriri ostida chop etilgan. Gazetaning narxi 2 tiyin. Gazeta A-3 formatda 2 varoqdan iborat bo`lgan. Gazetaning 1,2-sahifasida rus tilida, 3,4-sahifalarida esa o`zbek tilidagi maqolalar berilgan. «Ximik» gazetasi ilk soni yangi yil bayrami munosabati bilan chop etilganligi uchun u rangli formatda chiqqan. Gazeta bir oyda uch marotaba chop etilishi ma'lum qilingan.

Birinchi sahifa «Нас поздравляют!» nomli maqola bilan boshlangan va unda Farg`ona shahar Partiya komiteti gazetaning ilk soni chiqishi munosabati bilan zavod ahlini tabriklagan. Maqolada gazeta asosan Farg`ona azodli o`g`itlar zavodi faoliyatini erishayotgan yutuqlarni namuna sifatida ko`rsatish va yo`l qo`yilayotgan kamchililarni bartaraf etishda ko`makchi bo`lishiga ishonch bildirilgan. От «Ферганской правды», От «Коммуны» nomli maqolalarda esa har ikki gazeta tahririyatining yangi gazetaning taskil etilishi musosabati bilan yo`llagan tabrigi o`rin olgan. Farg`ona azodli o`g`itlar zavodi direktori S.T.Yakubovning «С новым свершениям» nomli maqolasida zavodning 1978-yilda ərishgan yutuqlari, yo`l qo`yilgan kamchiliklar va 1979-yilga mo`ljallangan rejalar haqidagi bayonoti bosilgan. Ikkinci sahifada SSSR Oliy Soveti deputati S.LMuravlevanining «Планы партии – планы народа», Farg`ona azodli o`g`itlar zavodi partiya, kasaba soyuz, komsomol komitetining «Наш труд – Родине» maqolalar va zavodning amiak ishlab chiqaruvchi sexining rasm ilova qilingan.

Uchinchi sahifadan boshlab maqolalar o`zbeki tilida birinchi va ikkinchi sahifada rus tilda berilgan maqolalarning tarjimasi, shuningdek, M.Nishonovning «Yakunlar va rejalar» maqolasi chop etigan. To`rtinchi sahifada zavod direktori S.T.Yakubovning birinchi sahifada berilgan «С новым свершениям» (Yangi zafarlar sari) nomli maqolasi o`zbek tilida chop etilgan. R.M.Mahmudovning «So`zimiz qat’iy» maqolasi, T.Mahmudovning «Qutlug` yil» she’ri bosilgan.

1986-yil 11-iyulda chiqqan № 16 (umumiyligi 268) soni ham xuddi birinchi sonidek 1,2-sahifalar rus, 3,4-sahifalar o`zbeki tilida chop etilgan. Aniqrog`i rus tilidagi maqolalar o`zbek tiliga o`g`rilib keyingi sahifalarda berilgan. 15-iyun meditsina hodimlari kuni munosabati bilan Azot zavodi tasarrufidagi kasalxonada ishchilarga ko`rsatilayotgan tibbiy xizmat haqida maqolalar berilgan. «Halollik umumiyligi ish» nomli maqolada zavod ishchilari tomonidan amalga oshirilayotgan o`g`riliklar, jamoa mulkini talon-taroj qilinishiga nisbatan salbiy munosabat bildirilgan. Gazetaning to`rtinchi sahifasida «Ijod dorilfununi», «Salomatlik yo`lida» nomli manaviy hayotga oid maqolalar berilgan. Gazetaning ushbu soni muharrir A.Ergashev taxriri ostida bosmadan chiqqan.

Gazeta sahifalarida Farg`ona azotli o`g`itlar zavodi faoliyati batafsil yoritib borilgan. Shuning uchun ham gazetani tashkil etilgan vaqtdan boshlab zavodning o`ziga xos solnomasi bo`ldi deb hisoblash mumkin.

Farg`ona davlat universiteti Partiya Komiteti, rektorati, komsomol va kasaba soyuz tashkilotlarining organi «Pedagog» gazetasini 1968-yildan chiqqa boshlagan. Bu vaqtida Farg`ona Davlat universiteti pedagogika instituti maqomida bo`lgan. Farg`ona viloyati tarixi va madaniyati muzeyi joriy arxivida «Pedagog» gazetasining 1969, 1970, 1977, 1980, 1981, 1991-yillarda chop etilgan ayrim sonlari mayjud. Gazeta A-3 formatda ikki varoqda chop etilgan.

Gazetaning 1991-yil 30-aprel kuni chiqqan № 5 (umumiy 975) sonini taxlilini ko`rib chiqamiz. Gazetaning ushbu sonida o`n ikkita maqola e`lon qilingan. Maqolalarning 5 tasi o`zbek va 7 tasi rus tilida chiqqan. Birinchi sahifada Universitet Ilmiy Kengashining navbatdan tashqari yig`ilishiga bag`ishlangan maqola va 1-may mehnatkashlar kuni munosabati bilan bayram tabrige bositgan. Maqolalarda universitet faoliyati, ilmiy ishlar, o`quv jarayoni, talabalar yotoqxonasi va boshqalar yoritilgan. Gazetaning so`ngi sahifasida «Dorulfununimiz 60 yoshda» nomli rukun ostida «Tarixchilar tarixi» nomli maqolada universitetning Tarix-pedagogika fakulteti dekani O.Ohunjonov bilan muhibir Siddiq Mirsobir o`g`lining suhbatini berilgan. Ushbu suhbat jarayonida fakultet dekani O.Ohunjonov Farg`ona davlat universitetining Tarix-pedagogika fakultetining shakllanish tarixi, mavjud kaferalar, u yerdagi o`qituvchilarning ilmiy salohiyati haqida muhim ma'lumotlar bergan. Quyida ularning ayrimlariga to`xtalamiz. Tarix fakulteti 1930-yil may oyida universitetning to`ng`ich fakultetlaridan biri sifatida tashkil etilgan. 1932-yilda kechki bo`lim ochilgan. 1935-yildan boshlab ikki yillik o`qituvchi tayyorlash kurslari tarix fakultetida ham ochilgan. 1953-yildan tarix-filologiya fakulteti deb atalgan. 1965-yilda tarix fakulteti yana ajralib chiqqan. Biroq fakultetning nomi tez-tez o`zgarib turgan. Fakultet goh sof tarix, tarix-filologiya, tarix-geografiya, tarix-pedagogika kabi nomlar bilan atab kelingan. Fakultet qoshida 1970-yilda musiqa-pedagogika bo`limi, 1977-yildan boshlang`ich ta`lim metodikasi bo`limi ochilgan. Hozirda fakultetimiz tarix-pedagogika deb atab kelinmoqda deb qayd etgan.

Fakultet ochilgan vaqtida ishini bitta tarix kafedrasi bilan boshlagan 1978-yil undan umumiy tarix kafedrasi ajralib chiqqan. 1981-yilda esa tarix, jamiyatshunoslik, Sovet davlati va huquqi asoslarini o`qitish metodikasi kafedrasi tashkil etilgan. Kafedralarga turli davrlarda A.S.Gurtonenno, Soli Soatov, professor D.Allamurodov keyinchalik A.Umaraliyev, Sh.Abdullayev, T.Zohidovlar rahbarlik qilishgan. Hozirda T.Mirsoatov rahbarlik qilayotgani haqida ma'lumot berilgan.

Tarix-pedagogika fakultetida 24 ta o`qituvchi faoliyat yuritmoqda. Ulardan uchtasi fan doktori professorlar. O`n to`rttasi fan nomzodlari, dotsentlar va ilmiy salohiyati yuqori bo`lgan ustozlar faoliyat olib boramoqda deb ma'lumot beradi fakultet dekani O.Ohunjonov.

Xalq xo`jaligi yo`nalishidagi bosma matbuot nashrlaridan yana biri Farg`ona Politexnika institutining «Injener» gazetasidir. Ushbu gazetaning ilk soni 1974-yil 2-sentyabrda chop etilgan. «Injener» gazetasi ikki varoq, to`rt sahifadan ibotar bo`lib, maqolalar o`zbek va rus tillarida chop etilgan. Gazetaning narxi 2 kopeyk deb ko`rsatilgan.

Gazetaning birinchi sahifasida institut rektori geologiya-minerologiya fanlari doktori, professor M.S.Saydaliyevaning «Yetuk kadrlar uchun» nomli maqolasi bosilgan.

Rus tilida «Это надо знать» nomli maqolada institut haqida qisqacha umumiy ma'lumot berilgan. Jumaladan «Institutimiz mustaqil ta'lim muassasasi sifatida 1967-yil Toshkent Politexnika institutining umumiy texnika fakulteti negizida tashkil etilgan. Unda 5 mingdan ortiq talaba taxesil oladi. Institutda quyidagi fakultetlar mavjud: qurilish-geologiya, mexanika, energetika, maishiy xizmat ko`rsatish texnologiyalari (ushbu fakultet Qo`qon shahrida joylashgan). Institutda 28 ta kafedra mavjud. 300 dan ortiq o`qituvchi faoliyat yuritadi, ulardan 50 dan otriqg`i fan nomzodlari, dotsentlar.

Institutda 200 dan ortiq o`quv xonalari mavjud. Institut yotoqxonasida 1000 ga yaqin talaba istqomat qiladi. Isstitut oshxonasi har kuni 1000 dan ortiq odamga xizmat ko`rsatadi. Institutda o`nlab sport to`garaklari bo`lib ularda 500 dan ortiq talaba ishtrok etmoqda.» Birinchi sahifada «Injener» gazetasining ilk sonini chop etilishi munosabati bian yo`llangan tabriklar rus va o`zbek tillarida bosilgan.

Tug`ilgan kuning bilan «Injener», «Birinchi intervyu» nomli maqolalar rus va o`zbek tillarida chop etilgan. «Приглашаем в лабаратории» «Учится и трудиться во славу нашей родину», «Yangi vazifalar», «Kadrlar o`chog`i», «Мастерство теория практика «Как делается газета» «Hisoblash markazi – yangilik» nomli maqolalar bosilgan. Gazetada «Уголок юмора» (Kulgi burchagi) ham o`rin olgan.

«Injener» gazetasining 1-soni T P Zulfiyeva tahriri ostida Farg`ona Politexnika instituti tipografiyasida bosmadan chiqqan.

1945-1991-yillarda Farg`ona viloyatida chop etilgan xalq xo`jaligidagi ko`plab gazetalar o`z orgnlarining tashkil etilishi, faoliyatida erishgan yutuqlari va yo`l qo`yilgan kamchiliklar haqida batafsil ma'lumot olish imkonini beradi. Shuning uchun ham xalq xo`jaligi hisobidagi muassasalarning o`z nashrlari bo`lgani viloyatimizning yaqin tarixini o`rganishda o`ziga xos muhim manbaga ega bo`lish imkoniyatini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Алиназарова Д.Фаргона водийсида вақтли матбуотнинг шаклланиши ва ривожланиши (XIX аср охири-XX асрнинг 80-йиллари) тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати – Б 37.

2. Фарғона вилояти тарихи ва маданияти музей архив фонди. КП. 814 Г. 19 «Марғилон атласи» № 18 1973-йил. // КП. 5172\6 Г. 204 “Марғилон атласи” № 4 1981-йил. // КП. 10001 Г. 554 «Марғилон атласи» №24 1986.
3. «Марғилон атласи» № 18 28-апрел 1973-йил.
4. Обидов М. Фарғона журналистикаси. – Т.: Шарқ, 2009. – Б 94.
5. КП. 5172\6 Г. 204 «Марғилон атласи» № 4 1981-йил. // КП. 10001 Г. 554 «Марғилон атласи» № 24 1986.
6. «Марғилон атласи» № 24. 1986-йил 11-июн
7. Фарғона вилояти тарихи ва маданият музей архив фонди. КП. 10002 Г. 555 «Текстилщик» 11.3 // КП. 10003 Г. 556. № 24. // КП. 2142 Г. 37 «Ферганский текстилщик» № 21 1972-йил. // КП. 8347\10 Г. 386 «Текстилщик» № 44,45 1973-йил. // КП. 2095 Г. 34 «Ферганский текстилщик» № 17 18 1974-йил.// КП. 3815 Г. 92 «Текстилщик» № 15 1978-йил. // КП. 3816 Г. 93 «Текстилщик» № 17 1978-йил. // КП. 3817 Г. 94 «Текстилщик» № 16 1978-йил. // КП. 3818 Г. 95 «Текстилщик» № 14 1978-йил. // КП. 8347\11 Г. 387 «Текстилщик» № 10 1985-йил. // КП. 8347\11 Г. 388 «Текстилщик» № 31 1985-йил. // КП. 8347\12 Г. 389 «Текстилщик» № 18 1985-йил.
8. «Текстилщик» № 15 1978-йил. 21-апрел
9. «Текстилщик» № 24. 1986-йил 13-июн
10. «Текстилщик» № 14. 1978-йил 14-апрел
11. «Текстилщик» № 17. 1978-йил 5-май
12. «Текстилщик» № 16. 1978-yil 28-aprel.
13. Фарғона вилояти тарихи ва маданият музей архив фонди. КП.4316 Г.101 «Советский шелк» № 50.1978 // КП.9993 Г.549 «Советский шелк» № 23 1986.
14. Фарғона вилояти тарихи ва маданият музей архив фонди. КП.813 Г.18 «Совет ипаги» № 9,10 1973.
15. Фарғона вилояти тарихи ва маданият музей архив фонди. КП.4316 Г.101 «Совет ипаги» № 50.1978.
16. «Совет ипаги» № 9. 1973-yil 21-aprel.
17. «Совет ипаги» № 10 1973-йил 29-апрел.
18. «Совет ипаги» № 10. 1973-йил 29-апрел.
19. «Совет ипаги» № 10. 1973-йил 29-апрел.
20. Фарғона вилояти тарихи ва маданият музей архив фонди. КП.4316 Г.101 «Советский шелк» № 50.1978
21. «Советский шелк» № 50. 1978-йил 16-декабр.
22. Фарғона вилояти тарихи ва маданият музей архив фонди. КП. 4196 Г.98 «Химик» № 1. 1979.П.5 // КП. 6050 Г. 255 98 «Химик» № 26.1982. // КП. 10388 Г. 59698 «Химик» № 16. 1986.
23. «Химик» № 1 1979-йил 1-январ.
24. «Химик» № 16 1986-йил 11-июл.

25. Фарғона вилояти тарихи ва маданият музейи архив фонди. КП. 4859\2 Г. 169 «Педагог» № 7 1969.\| КП 5052\3 Г.188 «Педагог» № 27 1970.\| КП. 4888\12 Г. 178 «Педагог» № 307 1977.\| КП. 4888\61 Г. 177 «Педагог» № 1 1980 П.8 \| КП. 488\5 Г.176 «Педагог» № 15 1980. П.8. \| КП. 488\5 Г.175 «Педагог» № 16 1980 П.8.\| КП. 488\3 Г. 174 «Педагог» № 18 1980 П.8.\| КП. 4888\2 Г. 173 «Педагог» № 20 1980 П.8 \| КП. 5030 Г. 180. «Педагог» № 28 1980 П.8. \| КП. 4888\1 Г. 179 «Педагог» № 19 1980. П.8. \| КП. 5825\3 Г 245 «Педагог» № 34 1981. \| КП 9909 Г 529 «Педагог» № 3,7,5 1991 П.3.
26. «Педагог» № 5 1991-yil 30-aprel.
27. Фарғона вилояти тарихи ва маданият музейи архив фонди.КР. 2703 Г. 58 «Инженер» №1 1974.
28. «Инженер» №1 1974 2-sentyabr